


2021- yil uchun Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 30 090,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 7,8 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 112,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 4,1 % ga yetdi.




**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YAHM, jami	24 779,3	30 090,5	107,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 077,7	29 394,0	107,8
mahsulotlarga sof soliqlar	701,6	696,5	108,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	24 077,7	29 394,0	107,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 662,6	14 089,2	104,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 765,5	4 736,3	112,2
sanoat	1 695,4	2 186,4	111,4
qurilish	2 070,1	2 549,9	112,8
xizmatlar	8 649,6	10 568,5	110,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 972,4	2 445,8	111,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 025,2	1 338,9	121,3
boshqa xizmat tarmoqlari	5 652,0	6 783,8	107,7

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 11 095,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,5 % ga yuqoridir.

2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o'sish sur'atlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,7 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 47,9 % ni, sanoat tarmog'i 7,4 % ni, qurilish 8,7 % ni va xizmatlar sohasi 36,0 % ni tashkil qildi.

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,2	97,7
mahsulotlarga sof soliqlar	2,8	2,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	48,4	47,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	15,6	16,1
sanoat	7,0	7,4
qurilish	8,6	8,7
xizmatlar	36,0	36,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,2	8,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,3	4,6
boshqa xizmat tarmoqlari	23,5	23,1

2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga sof soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 104,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 47,9 %), sanoatda – 111,4 % (7,4 %), qurilishda – 112,8 % (8,7 %), xizmatlar sohasida – 110,2 % ni (36,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,3 % (8,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 121,3 % (4,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,7 % dan (23,1 %) iborat bo'ldi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,1 f.p. (2020- yilda – 2,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2020- yilda – 0,4 f.p.) va qurilish tarmog'i – 1,0 f.p. (2020- yilda – 0,7 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 3,6 f.p. (2020- yilda – 0,3 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2020- yilda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 112,7 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 115,7 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida 115,5 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 77,3 % ni tashkil qildi (2020- yilda – 77,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

